

**OLIY TA'LIMDA ESKI O'ZBEK ADABIY TILINI O'QITISHDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (A.NAVOIYNING "FARHOD VA  
SHIRIN" DOSTONI MISOLIDA)**

Isoqova Muslima Baxtiyorovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

o'zbek tili va adabiyoti fakulteti II bosqich magistranti

Har bir davlatning kelajagi va uning ravnaqi dastavval ilm-fan taraqqiyoti hamda ta'limgarbiyaning rivojlanishi va takomillashishi bilan belgilanadi. Shu bois O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilm-fan, ta'limgarbiya va kasb-hunar o'rgatish hamda sifatli kadrlar tayyorlash masalalariga davlatimiz siyosatining ustivor yo'naliшilaridan biri sifatida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, har bir ta'limgarbiya oluvchilarda chuqur va mustahkam bilim, teran fikr, yuksak ma'naviyat va madaniyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni tarkib toptirishga e'tibor kuchaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli jamiyatning barcha sohalari jumladan, ta'limgarbiya tizimida ham so'ngi yillarda keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatimizda ilm-fan, texnika va texnologiyalarning so'ngi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'limgarbiya tizimini barpo etish vaqt o'tgan sari dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetta ustuvor yo'naliшdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat dasturi tasdiqlandi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF—5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limgarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiysi mazkur sohadagi yangi islohatlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Bu tom ma'noda ta'limgarbiya tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi[1;1].

Oliy ta'limgarbiya tizimini 2-kurs talabalariga, 4-semestrda "Matnshunoslik" fanidan amaliy mashg'ulotlar qo'yilgan bo'lib, to'rt soat amaliy mash'ulot eski o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganish uchun ajratilgan.

Malumki, Eski o'zbek adabiy tilining eng rivojlangan davri XIV asr hisoblanadi. Bu davr adabiy tilini o'rganishda Alisher Navoiyning asarlari asosiy manba sanaladi. Shu o'rinda buyuk bobokalonimizning o'zbek adabiy tilining rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi haqida quydagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz va bu ma'lumotlarni talabalarga berish maqsadga muvofiqdir. Navoiy o'zbek tilini xazina deb bildi. Bu xazinani ilonlar va tikanlar o'rabi turganini ta'kidladi. U eski o'zbek adabiy tilini ana shu "ilon" va "tikanlar" dan tozalab berdi. Alisher Navoiy o'zining muborak ijodi bilan o'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish bilan birga, o'zbek tilining taraqqiyotiga ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Navoiy o'z

asarlarida, albatta «grammatika» yoki «fonetika» so‘zini qo‘llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonunyatlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o‘ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o‘zbekcha atamalar bilan nomlangan: amr, harf, harakat, hamza, voze (voz-yasovchi yoki so‘z yasovchi); tajnis va ihom – ko‘p ma’noli so‘z; alam-ism, ot; atmutakallim-so‘zlovchi; lafz, kalom, alfoz kabilar haqida o‘z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o‘zbek) tilining grammatik xususiyatlari haqida yetarli darajada fikr bildirgan. U, xususan, so‘z yasash yo‘llari haqida maxsus to‘xtaydi. O‘zbek tilida fe’llardagi birgalik va orttirma darajalarini yasovchi –sh/-ish, -t, qo‘sishchalarini orqali chopishmoq, topishmoq, ko‘chishmoq, o‘pishmoq, yogurt, qildurt, yashurt, chiqart kabi so‘zlar yasalganligini, sifatlarda belgining ortiq-kamligini esa p, m, vositasi orqali op+oq qop+qora, qip+qizil, sap+sariq, yum+yumaloq, yap+yassi tarzida ifodalanishini aytadi[2].

Alisher Navoiyning tilimiz taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi haqidagi ma’lumotlardan so‘ng Navoiyning asarlarida qo‘llangan sifat so‘z turkumi haqida tilshunos olimlar G‘. Abdurahmonov hamda A.Rustamovlarning ilmiy, nazariy xulosalari bilan talabalarni tanishtiramiz. Bular quyidagilar: “Navoiy tilidagi sifatlar ham xuddi hozirgi turkiy tillardagi sifatlar singari asliy va nisbiy sifatlarga bo‘linadi. Asliy sifatlar ham, nisbiy sifatlar ham predmetning belgisini bildiradi. Asliy sifatlarga aq (oq), qara (qora), kek, qizil, yaigil, sarig‘ singari rang bildiruvchi; shi:ri:n, chuchuk, achiq \achchiq)qa o‘xhash ta’m anglatuvchi; ulug‘, kichik, past, baland singari hajm va shakl ifodalovchi; yash, qari, ker kabi jismoniy belgilarni bildiruvchi; yaxshi, yamantz o‘xhash mavhum belgilarni anglatuvchi; tuz (to‘g‘ri), uzaq, yaqin singari zamon va makon belgilarini bildiruvchi so‘zlar kirib, bular predmet belgisini bevosita o‘zlarining leksik ma’nolari bilan bildiradi. Nisbiy sifatlarga esa burnag‘i (burungi), ilg‘i (yilgi) singari vaqtga bo‘lgan munosabatni bildiruvchi; chzxdag‘i, baishdag‘i kabi makonga bo‘lgan munosabati anglatuvchi: kuchluk, yashlig‘ (yoshli) singari egalik “belgisini bildiruvchi; yersiz, nekem, bevafe singari yo‘qlik belgisini anglatuvchi; gulgun, pari:vash kabi o‘xhashlik va hokazolarni bildiruvchi so‘zlar kirib, bular predmetning belgisini bevosita o‘z leksik ma’nolari bilan ifodalamay, bir predmetning boshqa predmetga bo‘lgan munosabati orqali, ya’ni nisbiy ravishda belgi bildiradi. Hozirgi chog‘ishtirma daraja affksi -roq Navoiy tilida -raq va -rak variantlariga ega bo‘lgan. -raq yozuvda reyu alifu qof bilan ifodalanib, qattiq o‘zakli so‘zlarga qo‘shiladi, -rak esa reyu alifu kof bilan ifodalanib, yumshoq o‘zakli so‘zlarga qo‘shiladi: ulug‘raq (x, 24 a), kichikrak (x, 24 a), yaxshiraq (x, '25 a), kergarrak (MQ, y5), xushraq (x, 26 o), kvprak (MQ, 29), turfaraq (MQ, 29), biyikrak (MQ, 8). Bu affiks quyidagi hollarda chog‘ishtiruv uchun ishlatalib, afzallik bildiradi:

1) chiqish kelishigidagi ot yoki olmosh bilan birikkanda: bu razelat kishilik takabburidin xobraq va bu zalelat yaxshiliq tasavvuridin marg‘ubraq. (MQ, 49); yaxshiliq itip bu netavendin

helimni desam, yamanraq andin (x, 53 b); barchag'a vzgadin vzi azi: zraq va vzgalar svzidin yez svzi azi:zraq (MQ, 100);

2) -ki(m) bilan birga kelganda: tinch kvql-bila yavg'an umach yaxshiraq-kim takalluf-u mashaqqat-bilan qanday kulach; eski chapan-bila ferig' tufrag'da olturmaq yaxshiraq-kim zarbaft xaften kiyip birav allida turmaq (MQ, 146); butparastliq yaxshiraq-kim xudparastliq (MQ, 107). -raq, -rak chog'ishtiruvchn so'z bo'lмаган holda sifatning ortiqligini bildiradi: kim-ki, ulug'raq, asa xidmat kerak ul-ki, kichikrak, aqa shafqat kerak (x, 24 s); kimsa necha zeb-u tama'din yiraq zimnida eseyish-erur yaxshiraq (x, 25 a).

Navoiy tilida sifatning orttirma darajasini yasaydigan hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan eng so'zi ishlatilmaydi. Ammo sifatning orttirma darjasи Navoiy tilida ham sifatni chiqish kelishigi va bosh kelishik formalarida takrorlash yo'li bilan yasaladi: mulk-i arab-ichra ajabdin ajab vela aqa ham-ajam-u ham-arab (x, 30 a). Bunday takror oldida barcha va uning sinonimlari ham kelishi mumkin: bu el — erur barcha yamandin yaman, kim-ki, yoq andin yaman, andin yaman (x, 20 b). Sifatning kuchaytirma (intensiv) formasi sifatning birinchi bo'g'inini, bo'g'in oxiridagi undoshni lablab undoshlaridan p yoki m bilan almashtirib, takrorlash bilan yasaladi. Navoiyning o'zi bu haqda quyidagilarni yozadi

1: yana bir raq ye bir sifatnis hamul helig'a mu. belag'a-uchun aniq avvalda avval harfig'a bir pe ye mim izefa qilip, ul ishyg'a zeyid qilurlar; p misoli: ep-eq, qap-qara, qip-qizil, sap-sarig', yup-yumalaq, yap-yasi (yap-yassi), ap-achug' (oppa-ochiq), chup-chuqur (bu nav' xeyli ham tapilur); mim misoli: kvm-kvk, yamyashil, bvm-bvz. Mahdiyxon o'zining «Maboniul-lug'at»ida yam-yashilni yap-yashil deb berib, quyidagi sifatlarni ham misol qilib beradi: qip-qirmizi (qip-qizil), tup-tuz (tep-tekis), top-tog'ri (to'ppa-to'g'ri), tip-tik, sap-sag'. Sifatning kuchsiz formasini yasovchi -imtir affaksi -(i—u)mtul/-(i—u)mtul shakliga ega. Mahdiyxon bu haqda shunday deydi: yana -(i—u)mtul/-(i—u)mtuldir. Bu ranglarga qo'shilib, nimranglik ma'nosini bildiradi: ag'imtul ya'ni oqqa moyil, qizimtul ya'ni qizilga moyil, karamtul, yashumtul va hokazolar. Hozirgi zamon o'zbek tilida sifat kesim bo'lib kelganda 3-shaxsda ko'proq bog'lamasiz ishlatiladi. Navoiy tilida aksincha bog'lama -dur(ur)— tur(ur) bilan ko'p ishlatiladi: har-nav'-ki aylasam xitebiq yuz ancha biyiq-durur janebiq (x, 53 b) helim sharhi-ki bas uzun-dur, bu turfa-ki dambadam fuzun-dur (x, 53 b). Sifat otlashmagan taqdirda gapda aniqlovchi va kesim bo'lib keladi, Quyidagi baytlarda a'le, adne, yashil sifatlari aniqlovchi bo'lib kelgan: rutbada andaq aqa a 'l e maqem kim boluban charx aqa ad n e maqem (x, 20 b) latta-ki muhkam tuguban baq aqa yetkuruban baq yashil raq aqa (x, 20 b). Quyidagi parchada esa yiraq va yaxshiraq sifatlari kesim bo'lib kelgan: sachmaq avuch-birla guhar at-uchun naqd etak-birla mubehet-uchun aql hisebidin-erur bas yiraq bux1 bu juduqdin erur y a x sh i r aq (x, 22 a) Navoiy tilida sifat yasovchi ba'zi affikslar hozirgi o'zbek adabiy tilidan o'zining fonetik variantlarga egaligi bilan ham farqlanadi. Hozirgi sifat yasovchi -li(k) affaksi Navoiy tilida -lig(k), -l<sup>q</sup>g'(q), -lug(k), -lug'(q) shakliga ega. Bu affiksda tanglay hamda lab uyg'unliklari

buzilmaydi. Har qaysi vari-, antga bittadan misol keltirish bilan cheklanamiz: davr ichiqni necha qanlig‘ qilip nefo kibi atrfishenliq qilip (x, 35 a); qayg‘uluq olturmish edi Beyazi.sordi g‘ami kayfiyatini bir muri:d (x, 16 b); yaman tillig bolsa, abushqa kvqli andin yaralig‘, yaman ishlig bolsa erga andin yuzqaraliq (MQ, 56); otashi n yuzlug mug‘anniy-ki xalqdin muleyim surud chiqarg‘ay, hel ahliniq kuygan bag‘ridin dud chiqarg‘ay [3;81-88]

Amaliy mashg‘ulot darsini o‘tishda yuqoridagi nazariy bilimlar ”Suhbat” metodidan foydalanib beriladi. Darsni mustahkamlash ya’ni amaliy qismida ”Venn diagrammasi” metodidan foydalanish ko‘proq samara beradi deb hisoblaymiz. Chunki taqqoslab, oldin mavjud bo‘lgan bilmlariga tayanib qiyoslab o‘rganish talabalarning yodidan chiqmaydi. Biz darsini dastlab Alisher Navoiyning ”Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod va Xusrav monologini matnini olamiz hamda parchada qo‘llangan sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni belgilab chiqamiz.

Dedi: “Qaydinsen ey Majnuni gumroh?”

Dedi Majnun: “Vatandin qayda Ogah?!”

Dedi: “Nedur sanga olamda pesha?”

Dedi: “Ishq ichra Majnunliq hamisha.”

Dedi: “U ishdin olmas kasb ro’zi.”

Dedi: “Kasb o’lsa, basdir ishq so’zi.”

Dedi: “Kim ishq o’tidin befasona?”

Dedi: “Kuymay kishi topmas nishona.”

Dedikim: “Kuymagingni ayla ma’lum.”

Dedi: “Andin erur jox ahli mahrum.”

Dedi: “Qay chog’din o’ldung ishq aro mast?”

Dedi: “Ruh ermas erdi tang’a payvast.”

Dedi: “Bu ishqin inkor qilg’il.”

Dedi: “Bu so’zdin istig’for qilg’il.”

Dedi: “Oshiqqa ne ish ko’p qilur zo’r?”

Dedi: “Furqat kuni ishqiy balo sho’r.”

Dedi: “Ishq ahlining nedur hayoti?”

Dedi: “Vasl ichra jonon iltifoti.”

Dedi: “Kim dilbaringning der sifotin?”

Dedi: “Til g’ayratidin tutmon otin.”

Dedi: "Kim ishqig'a ko'nglung o'rundur?"

Dedi: "Ko'nglimda jondek yoshirundir."

Dedi: "Vaslig'a bor sen orzumand."

Dedi: "Bormen xayoli birla xursand."

Dedi: "Joningni olsalar yodi?"

Dedikim: "Ushbudir jonim murodi."

Dedi: "Ko'nglung fido qilsa jafosi?"

Dedi: "Jonimni ham aylay fidosi."

Dedi: "Bu ishqning tarki yaxshiroqdur?"


Dedi: "Bu sheva oshiqdin yiroqdur."

Dedi: "Ol ganju, qo'y mehrin nihoni."

Dedi: "Tufroqqa bermon kimyoni." [5]

Darsning mustahkamlash qismida venn diagrammasi metodidan foydalanish talabalarning avval egallagan bilimlarini yanada mustahkamlab yangi bilimlarni osonroq o'rganishga yordam beradi. Quyida ushbu metodning qo'llanish tamoyillarini ko'rib chiqamiz.

Venn diagrammasi



### Ta'rifi

Ikkita bir-biri bilan kesishgan doiralar ko'rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g'oyalar, tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo'llaniladi. Aylanma diagramma. Har bir doiradagi bo'sh joylar tafovutlarni yozish uchun ishlataladi; doiralar kesishganda hosil bo'lgan umumiyl maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar va hokazolar) umumiyl jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniladi. "Venn diagrammasi" metodi ikki yoki undan ortiq

tushuncha va ob'ektlarni o'zaro taqqoslash va natijani chizmada tasvirlash uchun xizmat qiladi. U mantiq nazariyasi bilan shug'ullangan ingliz olimi Jon Venna (1834—1923) nomi bilan atalgan. U odatda ikkita aylanadan iborat bo'lib, har bir aylana biror bir oyektning xususiyatlari to'plamini belgilaydi. Ikki obyektning o'xhash, bir xil xususiyatlar bor bo'lsa, bu ob'ektlarni tasvirlovchi aylanalar bir-biri bilan kesishadi. Agar ularning bir xil, o'xhash xususiyatlari yo'q bo'lsa, bu aylanalar o'zaro kesishmaydi.

Ikki aylana uchun umumiy bo'lgan kesishish sohasida ularning bir xil o'xhash xususiyatlari, qolgan sohalarda esa obyektlarning bir-biridan farqli xususiyatlari joy oladi. Ikkitadan ortiq ob'ektlar o'zaro taqqoslanayotganda, mos ravishda ikkidan ortiq aylanalardan foydalananiadi. "Venn diagrammasi" metodidan foydalanishdan ko'zlangan maqsad: talabalarda ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, ularning farqli va umumiy tomonlarini aniqlash ko'nikmalarni shakllantirish

Foydalanish doiralari : Fanlarni o'qitishda savollarni ma'lum o'quv mavzusiga va har qanday yoshdagi o'quvchilar guruhlariga moslashtirishda ham individual, ham guruh bo'lib ishslash uchun qo'llaniladi.

Afzalliklari : Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, predmetlar, hodisalar va shu kabilarning ham farqi, ham o'xhash jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. Talabalar ikki guruhga bo'linadi va har bir guruhga bittadan obyekt (tushuncha yoki predmet) beriladi.

2-bosqich. Doskaga ikkita kesishuvchi aylanalar chiziladi va guruhlarga bo'lib beriladi.

3-bosqich. Guruhlar o'z obyektlari xususiyatlarini o'z aylanalari ichiga navbatma-navbat yozishadi.

4-bosqich. Xususiyatlar yozib bo'lingandan so'ng, bu ikki obyektning umumiy xususiyatlari bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Aylanalardagi umumiy xususiyatlar haqidagi yozuvlar o'chiriladi va ular umumiy soha ichiga bitta qilib yoziladi.

5-bosqich. O'quvchilar ikki obyektni taqqoslash natijasida hosil bo'lgan Venn diagrammasini tahlil qiladilar. Bu obyektlarning umumiy va farqli tomonlariga yana bir bor e'tibor qaratiladi. Xulosa qilib aytganda, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rjanib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarini ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratlgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda,

boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarining

### **Foydalaniman adabiyotlar**

1. <https://lex.uz/>
2. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/alisher-navoiy-ozbek-adabiytiliningasoschisi>
3. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. –T.: «Fan», 1984.81-88.B
4. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova.; O‘zbek tili o‘qitish metodikasi Toshkent- 2016.108-112.B
5. Read more: <https://uz.lyricsus.com/farhod-va-shirin/dedi/>